

“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)

**SOVET DAVRIDA O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM TIZIMIDA ILMIIY TADQIQOT
FAOLIYATINING INSTITUTSIONAL EVOLUTSIYASI**

Isoqjonov Mirzoxid Sodiqjon o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti O‘zbekiston tarixi ixtisosligi 1-bosqich tayanch doktoranti

E-mail: mirzoxidisokjonov1997@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19454028>

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada Sovet davrida O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimida ilmiy tadqiqot faoliyatining institutsional shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda doktorlik darajasining tarixiy evolyutsiyasi, Germaniya modeli asosida shakllangan PhD tizimi, Rossiya imperiyasi hamda Sovet davridagi ilmiy kadrlar tayyorlash mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston SSRda ilmiy salohiyatning shakllanishi va milliy kadrlar ulushining ortib borishi statistik ma’lumotlar asosida tahlil etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** oliy ta’lim, aspirantura, doktorantura, PhD, ilmiy tadqiqot, Sovet ta’lim tizimi, ilmiy daraja, O‘zbekiston SSR, institutsional rivojlanish.*

**ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ ЭВОЛЮЦИЯ НАУЧНО-
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО
ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД**

Исақжонов Мирзохид Содикжон угли

***Аннотация:** В статье рассматривается институциональная эволюция научно-исследовательской деятельности в системе высшего образования Узбекистана в советский период. Анализируются исторические этапы формирования докторской степени, развитие модели PhD в Германии, а также система подготовки научных кадров в Российской империи и СССР. Особое внимание уделено росту научного потенциала и увеличению доли национальных кадров в Узбекской ССР.*

***Ключевые слова:** высшее образование, аспирантура, докторантура, PhD, научные исследования, советская система образования, ученая степень, Узбекская ССР, институциональное развитие.*

**INSTITUTIONAL EVOLUTION OF RESEARCH ACTIVITY IN THE HIGHER
EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN DURING THE SOVIET PERIOD**

Isoqjonov Mirzoxid Sodiqjon ugli

“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)

***Abstract:** This article examines the institutional evolution of research activity within the higher education system of Uzbekistan during the Soviet period. It explores the historical development of doctoral education, the emergence of the German PhD model, and the formation of scientific training systems in the Russian Empire and the USSR. The study also analyzes the growth of scientific capacity and the increasing share of local academic personnel in the Uzbek SSR based on statistical data.*

***Keywords:** higher education, postgraduate education, PhD, research activity, Soviet education system, academic degree, Uzbek SSR, institutional development.*

KIRISH

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim ko‘pgina mamlakatlarda bugungi kunda ikki bosqichga: tayanch doktrantura (PhD) va doktorantura (DSc) ga bo‘linadi. Ayrim mamlakatlarda esa, bu bosqichlar aspirantura (fan nomzodi) va doktorantura (fan doktori) deb nomlanadi. O‘zbekiston ta’lim tizimida 2013-yilga qadar aspirantura va doktorantura bosqichlari mavjud edi.

Aspirantura – ilmiy faoliyat bilan professional shug‘ullanuvchi mutaxassislarni tayyorlashning eng muhim bosqichidir. Mazkur bosqichda faoliyat yurituvchi shaxs aspirant deb ataladi. “Aspirant” so‘zi fransuzchadan olingan bo‘lib, istilohda “intiluvchi”, “yuqoriga ko‘tarilishga harakat qiluvchi shaxs” degan ma’nolarni anglatadi. Mazkur atama bugungi ma’nosida 1738-yildan ishlatila boshlangan. [1]

Aspiranturaning muqobili sifatidagi tayanch doktorantura va unda taqdim qilinadigan PhD ya’ni falsafa doktori darajasi – muayyan ilmiy sohada muhim va original hissa qo‘shishga qaratilgan tadqiqot darajasidir. Bunday mazmundagi doktorlik tizimi XIX asrda Germaniyada shakllangan. Biroq doktorlik unvoni bundan ancha oldin, O‘rta asrlar Yevropasida paydo bo‘lgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, dastlabki doktorlik darajasi taxminan 1150-yilda Parij universitetida berilgan.

Ilk doktorlik darajalari talaba erishishi mumkin bo‘lgan eng yuqori akademik malaka hisoblangan bo‘lsa-da, ular zamonaviy PhD darajasidan mazmun jihatidan sezilarli darajada farq qilgan. Xususan, o‘sha davrdagi doktorlik darajalari ilmiy soha rivojiga yangi, original hissa qo‘shishni talab qilmagan. Aksincha, ular mavjud bilimlar majmuasini chuqur o‘zlashtirish va anglash darajasini tasdiqlovchi malaka sifatida xizmat qilgan hamda mazmunan hozirgi magistr darajasiga yaqin bo‘lgan.[2]

1810-yilda Berlin universiteti (Humboldt universiteti) tashkil etilishi bu tizimning burilish nuqtasi hisoblanadi. Bu model hozirgi PhD tizimining bevosita ajdodidir. [3]

“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)

Germaniyada vujudga kelgan bu model tezda Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham keng tarqala boshladi. Jumladan, Fransiyada 1811-yilda, Niderlandiyada 1815-yilda, Shveysariyada 1833-yilda doktorlik tizimi shakllandi. Buyuk Britaniya esa bu jarayonga nisbatan kechroq qo’shildi. Xususan, Oksford universiteti 1917-yilda tadqiqotga asoslangan ilk doktorlik dasturini joriy etdi va u DPhil (Doctor of Philosophy) nomi bilan tanildi. Germaniya universitetlaridagi doktorlik tizimi shu qadar mashhur bo’ldiki Amerika Qo’shma Shtatlari talabalari ham Germaniyaga doktorlik darajasini olish uchun kela boshladi. Bu jarayon AQSHda ham doktorlik tizimining shakllanishiga turtki berdi. Natijada, AQSHdagi Yel universiteti 1861-yilda doktorlik darajasini bera boshladi.

Tez orada AQSHda ilmiy kadrlar tayyorlash va yetishtirishning jahondagi ilk uyushgan tizimi paydo bo’la boshladi. Xususan, Jon Hopkins universitetida 1876-yilda akademik tayyorgarlikni intensiv mustaqil tadqiqotlar bilan uyg’unlashtirgan modelini yaratildi va ushbu model oliy ta’lim standartiga aylandi.

Yevropa mamlakatlarida boshlangan mazkur jarayonlar Rossiya imperiyasiga ham ta’sir qilmay qolmadi. Rossiyada oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimining kirib kelishi va joriy etilishi 1804-yilgi Universitet Qonuni bilan bog’liq.

Rossiya imperiyasi universitetlarida ilmiy darajalar tizimi XIX asrda shakllangan bo’lib, unda magistr va doktor ilmiy darajalari muhim o’rin egallagan. Bu tizim universitetlarda ilmiy kadrlarni tayyorlash va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga xizmat qilgan. Magistr ilmiy darajasini olish uchun nomzod avvalo universitetni muvaffaqiyatli tamomlagan bo’lishi kerak edi. Shundan so’ng u o’z mutaxassisligi bo’yicha chuqurlashtirilgan imtihonlardan o’tgan va mustaqil ilmiy tadqiqot asosida dissertatsiya tayyorlagan. Tayyorlangan ilmiy ish universitet professorlari ishtirokida o’tkaziladigan ochiq ilmiy majlisda ko’rib chiqilgan. Himoya jarayonida tadqiqotchi o’z ishining maqsadi, mazmuni va ilmiy natijalarini bayon qilgan, professorlar esa dissertatsiya yuzasidan savollar berib, uning ilmiy ahamiyatini baholagan. Agar himoya muvaffaqiyatli o’tsa, universitet kengashi qarori bilan nomzodga Magistr darajasi berilgan.[4]

Magistr darajasidan keyingi bosqich esa Fan doktori darajasi bo’lib, u Rossiya imperiyasi universitetlarida eng yuqori ilmiy daraja hisoblangan. Doktor darajasini olish uchun ko’pincha avvalo magistr darajasiga ega bo’lish talab qilingan. Nomzod bir necha yil davomida o’z ilmiy yo’nalishi bo’yicha mustaqil tadqiqot olib borgan va katta hajmli doktorlik dissertatsiyasini tayyorlagan. Ushbu ilmiy ishda yangi ilmiy natijalar yoki nazariy xulosalar ilgari surilishi talab etilgan. Tayyorlangan dissertatsiya universitet ilmiy kengashi oldida ochiq majlisda himoya qilingan. Himoya jarayonida professorlar va mutaxassislar nomzodga savollar berib, tadqiqotning

“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)

ilmiy yangiligi va ahamiyatini baholaganlar. Agar himoya muvaffaqiyatli yakunlangan bo’lsa, nomzodga doktor ilmiy darajasi berilgan. Shu tariqa magistr va doktor darajalari Rossiya imperiyasi universitetlarida ilmiy kadrlar tayyorlashning asosiy bosqichlari sifatida faoliyat ko’rsatgan.[5]

Tarixdan ma’lumki 1917-yil oktabr to’ntarishi va uning natijasida bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelishi Rossiya jamiyatida beqarorliklarni keltirib chiqargan. Bu holat ilmiy kadrlar tayyorlash tizimiga ham o’z ta’sirini o’tkazmay qolmagan. Jumladan, 1918-yilda Rossiyada ilmiy darajalar va unvonlar bekor qilindi. 1920-yillarning o’rtalariga qadar yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash jarayoni Sovet hukumati tomonidan qonunchilik bilan tartibga solinmadi. O’nlab yillar davomida faoliyat yuritgan "professorlikka tayyorgarlik ko’rish uchun talabalarni saqlab qolish" instituti inersiya bo’yicha ishlashda davom etdi. Ya’ni, agar bitiruvchi universitetda o’qish paytida tadqiqotga moyilligi bilan ajralib tursa, professor yosh shaxsni universitetda magistrlik imtihonlarini topshirish va dissertatsiya yozish uchun saqlab qolish uchun asosli iltimosnoma berishi mumkin edi. Kadrlar tayyorlash tizimini Sovet hukumati tomonidan tartibga solishning birinchi harakati 1925-yilda, aspirantura tashkil etilganida sodir bo’ldi. O’rnatilgan tartibga ko’ra fan sohasidagi kadrlar ixtisoslashtirilgan ilmiy-tadqiqot muassasalarida to’liq a’zolar nazorati ostida o’qitilishi kerak edi. Zarur testlardan o’tgandan so’ng, izlanuvchan tadqiqotchi birinchi toifali ilmiy xodimga aylandi. 1920 va 1930-yillar boshlarida aspirantlar sonining ko’payishi kuzatildi, ammo ularning maqomi (o’qish davomida ham, undan keyin ham) va ularga qo’yiladigan talablar aniq belgilanmagan edi. Ishga joylashish istiqbollari ham noaniq edi.

Ma’lumki, yurtimiz Chor mustamlakachiligi davrida Turkiston general gubernatorligi, oktabr to’ntarishidan keyin Turkiston ASSR tarkibida bo’ldi. 1924-yilda o’tkazilgan milliy hududiy chegaralanish natijasida O’zbekiston SSR tuzilib, Sovet ittifoqi tarkibiga kiritildi. Shuning uchun SSSRda mavjud ta’lim tizimi xususan, oliy ta’limdan keyingi barcha islohot va o’zgarishlar bevosita O’zbekistonga ham tegishli bo’ldi.

Sovet Ittifoqida 1932-yildan boshlab universitetlardagi fakultet tuzilmasiga, ma’ruza-seminar o’quv tizimiga va oliy tarixiy ta’limga bosqichma-bosqich qaytish boshlandi. 1934-yil 13-yanvarda Ittifoq XKSning 79-sonli “Ilmiy darajalar va unvonlar to’g’risida”gi Qarori bilan ilmiy darajalar va unvonlarning tiklanishi ushbu islohotlar seriyasiga juda mos keldi. [6]

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimidagi o’zgarishlar O’zbekiston SSR ta’lim tizimida ham namoyon bo’lib, oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqot bilan shug’ullanuvchi kadrlar salmog’i ham oshib bordi.

“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)

Sohaga oid amalga oshirilgan tadqiqotlarga qaraganda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning ko‘pchiligi O‘zbekistonda yashovchi ruslar, tatarlar va boshqa mahalliy bo‘lmagan millat vakillaridan iborat bo‘lgan. Masalan, 1927 – 28-yillarda Toshkent universitetidagi jami 5 000 talabani atigi 350 nafari mahalliy (o‘zbek) talabalar edi. Yil sayin oliy ta’lim tizimi kengayib, O‘zbekiston SSRda talabalar va ular tarkibidagi o‘zbeklar salmog‘i ham oshib borgan. Agar respublikada bakalavr talabalar soni 1930-yilda 2900 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 1934-yilga kelib 8700 nafarga yetdi. 1934-yilda o‘zbek talabalar tibbiyot va ta’lim yo‘nalishlari bitiruvchilarining 42 foizini tashkil etgan. 1934-yilda universitetga yangi qabul qilinganlar orasida (bakalavr, magistr va aspirantlar) o‘zbek talabalar deyarli 47 foizni tashkil etgan. 1940-yilda Toshkentdagi O‘rta Osiyo universitetida o‘zbek talabalar jami talabalar sonining qariyb 32,5 foizini tashkil etgan. 1936 – 1951-yillar oralig‘ida berilgan 567 ta ilmiy darajaning 35 foizi mahalliy olimlarga tegishli bo‘lgan. Bu ko‘rsatkichni sohalar kesimida ko‘radigan bo‘lsak gumanitar va ijtimoiy fanlarda 85 nafar, texnika fanlarida esa 114 nafar olim ilmiy daraja olgan. [7]

Keyingi yillarda aspirantura tizimi takomillashib bordi. Jumladan, SSSR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi 1962-yil 31-iyulda “Aspirantura to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqladi. Nizomga muvofiq aspirantura – oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tadqiqot muassasalari qoshida ilmiy-pedagogik hamda ilmiy kadrlar tayyorlash shakli ekanligi ta’kidlandi. Oliy o‘quv yurtlari ilmiy muassasalar va fanlar akademiyasi tizimida tashkil etiladigan bo‘ldi. Aspirantura ikki shaklda: kunduzgi (ishlab chiqarishdan ajralgan holda) va sirtqi (ishlab chiqarishdan ajralmagan holda) shakllarda tashkil etiladigan bo‘ldi. Kunduzgi shakli uchun – 3 yilgacha, sirtqi shakli uchun 4 yilgacha muddat belgilandi. Nizomga muvofiq nomzodlarning yosh chegarasi ham belgilanib, unga ko‘ra kunduzgi aspiranturaga 35 yoshgacha, sirtqi aspiranturaga 45 yoshgacha bo‘lgan oliy ma’lumotli va kamida 2 yil mutaxassislik bo‘yicha ish tajribasiga ega bo‘lganlar hujjat topshira olardi. O‘qishga qabul qilingan aspirant uchun maksimal 100 rubl miqdorida stipendiya belgilanib, har yili 2 oy ta’til beriladigan bo‘ldi. Bundan tashqari, maqsadli aspirantura ham joriy etilib nomzodlar tanlovsiz qabul qilingan, o‘qish harajatlarini qabul qiluvchi tashkilot tomonidan qoplangan. Ilmiy daraja olgach aspirant o‘z ish joyiga qaytgan. Dissertatsiya himoya qilishni qulaylashtirish va bu orqali ilmiy darajalilar sonini oshirish maqsadida 1 yillik aspirantura ham tashkil etilib unda tadqiqotchiga stipendiya berilmagan, ammo ish joyi va maoshi saqlangan. [8]

Yuqoridagi ma’lumotlarga qaramay sovet ta’lim tizimida ilmiy kadrlar tayyorlash tizimi institutsional tizimga aylana olmaganligini aytishimiz mumkin. Misol o‘laroq, 1985-yil 27-noyabrda qabul qilingan “SSSR va Ittifoqdosh respublikalarda xalq ta’limi to‘g‘risidagi

“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)

qonunchilik asoslari”ga ko’ra Ittifoq va respublikalardagi ta’lim tizimi quyidagilardan iborat bo’lgan:

- Maktabgacha ta’lim;
- Umumiy o’rta ta’lim;
- Kasb-hunar ta’limi;
- O’rta maxsus ta’lim;
- Oliy ta’lim;
- Maktabdan tashqari tarbiya.

Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

– Doktorlik darajasi dastlab O’rta asrlarda shakllangan bo’lsa-da, uning mazmun-mohiyati tarixiy taraqqiyot jarayonida tubdan transformatsiyaga uchradi. Xususan, XIX asrda Germaniyada ushbu daraja ilmiy tadqiqotga asoslangan yangi akademik model sifatida rivojlandi. Hozirgi kunda PhD darajasi faqat mavjud bilimlarni o’zlashtirish bilan cheklanmay, balki fan rivojiga yangi va original ilmiy natijalar orqali hissa qo’shishni talab etuvchi oliy akademik bosqich sifatida e’tirof etiladi. Shu nuqtai nazardan, aspirantura tizimi ilmiy salohiyatni yuksaltirish, innovatsion tafakkurni rivojlantirish hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim institutsional ahamiyat kasb etadi.

– IX asrda Rossiya imperiyasi universitetlarida shakllangan ilmiy darajalar tizimi magistr va doktor bosqichlari asosida izchil hamda tizimli ilmiy kadrlar tayyorlash modelini vujudga keltirdi. Mazkur tizimda magistr darajasi ilmiy faoliyatga kirishning muhim bosqichi sifatida namoyon bo’lib, u nazariy bilimlarni chuqurlashtirish hamda dastlabki mustaqil ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni nazarda tutgan. Doktor darajasi esa oliy ilmiy malaka bosqichi sifatida yangi ilmiy natijalarni yaratish va fan taraqqiyotiga salmoqli hissa qo’shishni talab etgan.

– Ushbu ikki pog’onal tizim universitetlarda ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish, ilmiy maktablarning shakllanishi va akademik an’analarning mustahkamlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Shu jihatdan, Rossiya imperiyasi davridagi ilmiy darajalar tizimi nafaqat o’z davri doirasida, balki keyingi bosqichlarda shakllangan ilmiy-ta’limiy modellar taraqqiyoti uchun ham muhim tarixiy asos vazifasini bajargan.

– Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimidagi o’zgarishlar O’zbekiston SSRda ham yaqqol namoyon bo’lib, oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqot bilan shug’ullanuvchi kadrlar soni ortib bordi. Dastlab talabalar tarkibida mahalliy millat vakillari kam bo’lgan: masalan, 1927–1928 yillarda Toshkent universitetidagi 5000 talabadan atigi 350 nafari o’zbeklar edi. Biroq keyingi

“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)

yillarda oliy ta’lim tizimi kengayib, mahalliy talabalar ulushi sezilarli darajada oshdi. 1930-yilda 2900 nafar bo’lgan talabalar soni 1934-yilga kelib 8700 nafarga yetdi, yangi qabul qilinganlar orasida o’zbeklar ulushi esa qariyb 47 foizni tashkil etdi. 1940-yilga kelib O’rta Osiyo universitetida o’zbek talabalar 32,5 foizga yetdi. 1936 – 1951-yillarda berilgan ilmiy darajalarning 35 foizi mahalliy olimlarga tegishli bo’ldi.

Yakuniy xulosa qilib aytganda, O’zbekiston SSR da ilmiy kadrlarni tayyorlashning bosqichlari tizimli ravishda o’zgartirib borilgan. Ushbu o’zgarishlar yurtimizda ilmiy salohiyatli xodimlarning o’ziga xos tarzda ko’payishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. aspirant(n.) // <https://www.etymonline.com/word/aspirant> [murojaat qilingan sana: 23.02.2026]
2. Sarah Hastings-Woodhouse. How Germany Invented the PhD – A Quick History. // <https://www.findaphd.com/blog/8976/how-germany-invented-the-phd-a-quick-history#:~:text=Germany%20has%20a%20well%20Destablished,German%20philosopher%20Wilhelm%20von%20Humboldt>. [murojaat qilingan sana: 23.02.2026]
3. The Humboldtian Tradition of Higher Education. – Oxford: Oxford University Press, 2004.
4. University Statute of 1804 // Полное собрание законов Российской империи. – Санкт-Петербург, 1830.
5. A History of Russian Education. – London: Routledge & Kegan Paul, 1963.
6. Скворцов А. М. Становление советской аспирантуры по истории в СССР в 1930-е годы : законодательное регулирование и практика. (Научный диалог). 2021. – № 12. – С. 444 – 460. <https://www.nauka-dialog.ru/jour/article/view/3484> [Murojaat qilingan sana: 25.02.2026]
7. Sevket Akyildiz. An introductory history of Soviet Uzbek academics 1924-1960 // https://sevket-akyildiz.com/about/?utm_source=chatgpt.com
8. Положение об аспирантуре при высших учебных заведениях и научно-исследовательских учреждениях // Приказ Министерства высшего и среднего специального образования СССР от 31 июля 1962 г. № 284. // https://meganorm.ru/mega_doc/dop_norm/55/1_78_093_obshchesoyuznyy_klassifikator_informatsiya_po/0/prikaz_minvuza_ssr_ot_31_07_1962_N_284_ob_utverzhdenii.html [murojaat qilingan sana: 27.03.2026]